



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: [tilvaadabiyotuz@gmail.com](mailto:tilvaadabiyotuz@gmail.com)) <https://oak.uz/pages/4802>

**8**  
**DEKABR**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi qabul  
qilingan kun**





|                                                                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Тимур Хамракулов.</b> Структура кода интеллектуального детектива «Код да винчи» - как нарративной модели Д.Брауна.....    | 174 |
| <b>Shokhida Kasimova.</b> Enhancing secondary school students' speaking skills: principles and techniques for educators..... | 177 |
| <b>Shoira Sarimsakova.</b> The exploration of uzbek culture based on "cultural onion" model.....                             | 180 |

### Psixologiya

|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ra'no Alimardanova.</b> Onalarning farzandlar kelajagiga ta'sirini xorij va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilganligi.....              | 183 |
| <b>Dilfuza Shabbazova.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish.....                              | 186 |
| <b>Madina G'ofurova.</b> Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida xarakter yaratish mahorati.....                                                | 188 |
| <b>Olim Kodirov.</b> Reflective teaching perspectives of el teaching in uzbek schools.....                                                 | 190 |
| <b>Екатерина Югай.</b> Эффективные методы применения информационных технологий для развития творческого мышления у младших школьников..... | 193 |

### Kichik tadqiqot

|                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Nilufar Turg'unova.</b> Til o'qitishdagi ayrim yondashuvlar xususida.....                      | 196 |
| <b>Mohinur Farmonova.</b> Struktural adabiyotshunoslikda badiiy matn tadqiq manbasi sifatida..... | 198 |
| <b>Nargizaxon Madaminova.</b> Maktabgacha ta'lim                                                  |     |

|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| yo'nalishida ingliz tilini virtual muhitda o'rganish innovatsion metod va platformalar tahlili.....                                                  | 202 |
| <b>Mahliyo Sattorova.</b> Farhod va Shirin xalq dostonining janriy xususiyatlari.....                                                                | 206 |
| <b>Shaxnoza To'rayeva.</b> Imlo savodxonligi xususida tajribaviy tadqiq.....                                                                         | 209 |
| <b>Dilnoza Sa'dullayeva.</b> Ingeborg Baldauf izlanishlarida Fitrat - millat qahramoni.....                                                          | 213 |
| <b>Boxodir Ilxamov.</b> Reklamalarda foydalaniladigan shiorlarning kelib chiqishi va ularning nazariy asoslari.....                                  | 216 |
| <b>Munisa Abduazizova.</b> Konsept nazariyasi va uning tarkibiy tuzilishi tahlili.....                                                               | 218 |
| <b>Gulnoza Djurakulova.</b> O'zbek xalq dostonlarida "ot egarlash" epik formulasi.....                                                               | 221 |
| <b>Nigora Nurmuxmmadova, Dilnora Ibrogimova.</b> Aholi orasida gelmintozlarni tarqalishini oldini olishda axborot texnologiyalarining ahamiyati..... | 228 |
| <b>Ziroatxon Ubaydullayeva.</b> Ta'lim sohasiga doir birliklarning giponim va giperonimik munosabatlari.....                                         | 230 |
| <b>Мохицехра Журобоева.</b> Звуковой повтор в языковой структуре романа Е.И. Замятина «Мы».....                                                      | 233 |
| <b>Гузал Хуррамова, Муштарий Аликулова.</b> Метод глобального чтения.....                                                                            | 235 |
| <b>Озода Нормуродова, Зулфия Сафарова.</b> Интерактивные технологии в преподавание русского языка в английских группах.....                          | 238 |

Nilufar TURG'UNOVA,  
 Alisher Navoiy nomidagi  
 ToshDO'TAU tayanch doktoranti

## TIL O'QITISHDAGI AYRIM YONDASHUVLAR XUSUSIDA

**Annotatsiya:** maqolada ta'limda, xususan, til o'qitishda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar haqida ma'lumot berilgan. Yondashuvlarning turlari, maqsadi, mazmuni, o'ziga xos jihatlari va bir-biridan farqli xususiyatlari haqidagi qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** *til ta'limi, yondashuv, antroposentrik, bixevioristik, grammatik, integrativ, kommunikativ, kompetensiyaviy yondashuvlar.*

**Аннотация:** в статье представлена информация об основных подходах, используемых в образовании, в частности, в обучении языку. Описаны мнения о видах, целях, содержании, конкретных аспектах и различных особенностях подходов.

**Ключевые слова:** *языковое образование, подход, антропоцентрический, бихеовористический, грамматический, интегративный, коммуникативный, компетентностный подходы.*

**Annotation:** the article provides information about the main approaches used in education, in particular, in language teaching. Views about the types, purpose, content, specific aspects and different features of the approaches are described.

**Key words:** *language education, approach, anthropocentric, biseovoristic, grammatical, integrative, communicative, competence approaches.*

Pedagogikada yondashuv, metod, usul, texnologiya singari tushunchalar borki, ularning har biri o'z mazmun-mohiyatiga ega. Yondashuv ta'lim jarayonini tashkillashtiruvchi, asosiy prinsiplarni belgilab beruvchi vosita hisoblanadi. Yondashuvlar ta'limni qanday qilib samarali tashkil etish, o'quv materialini o'quvchiga qanday usulda yetkazib berish, qay yo'sinda natijaviylikni ta'minlash kabi savollarga javob izlaydi.

Milliy metodikamizda ona tilini o'qitishga bo'lgan yondashuvlar to'liq va tizimli ravishda o'rganilmagan. Shu o'rinda yondashuv tushunchasiga berilgan ayrim izohlarni ko'rib chiqish zarur. Yondashuv – o'qitish strategiyasini belgilovchi metodikaning asosiy kategoriyasi bo'lib, mazkur strategiyani amalga oshirish uchun o'qitish usulini tanlash, o'qitiladigan fanning mohiyatiga oid qarashlarni ifodalaydi. Muayyan bilim sohasidagi tadqiqotlar uchun eng umumiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Yondashuv o'qitishning prinsipial yo'nalishi deb ham talqin qilinadi. XIX asr oxiridan boshlab bir qator tilshunoslar va mutaxassislar (Genri Svit, Otto Jespersen, Garold Palmer) til o'qitish sifatini yaxshilashga intilgan holda tilni qanday o'rganish, til bilimlari xotirada qanday aks ettirilishi bo'yicha izlanishlar olib bordilar. Amerikalik tilshunos Edvard Antoniy 1963-yilda yondashuv, metod va texnika tushunchalarini bir-biridan farqlab beradi. Uning fikricha, mazkur tushunchalar o'qitishni tashkil etishning 3 ta darajasi bo'lib, o'zaro iyerarxik munosabatda bo'ladi:

Yondashuv – til o'rganish va o'rgatish tabiati bilan bog'liq bo'lgan korrelyativ taxminlar yig'indisi.

Metod – til materialini tartibli taqdim etishning

umumiy rejasi bo'lib, uning hech bir qismi qarama-qarshi bo'lmaydi va barchasi tanlangan yondashuvga asoslanadi. Bitta yondashuv doirasida ko'plab metodlar bo'lishi mumkin. Yondashuv aksiomatik, metodlar esa protsessualdir (jarayonga bog'liq).

Texnika – sinfda sodir bo'ladigan amaliyot, maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan turli usullar. Texnikalar metodga mos va u bilan uyg'un bo'lishi kerak.

Yondashuv mohiyatan juda keng tushuncha bo'lib, u ta'limning asosiy yo'nalishi, maqsadini belgilab beradi, o'qitish jarayonini butunlay qamrab oladi. Dastur, darsliklar ma'lum bir yondashuv asosida ishlab chiqiladi, o'qitish jarayonidagi metod, texnologiyalar ham mavjud yondashuvning mazmuniga mos holda tanlanadi.

Quyida bir qator o'zbek metodistlari tomonidan til ta'limida qo'llaniladigan yondashuvlarga oid fikr va mulohazalarni ko'rib chiqamiz.

Olima M. Sobirova "Ona tili ta'limiga antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari" mavzusidagi dissertatsiyasida ta'limda integrativ, aksiologik, kompetentli, animatsion, faoliyatga yo'naltirilgan, sinergetik, germeneytik, psixoterapevtik, akmeologik yondashuvlar qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi va ularning qisqacha izohini keltirib o'tadi. Qayd etib o'tish lozimki, sanalganlar faqat til o'qitishgagina tegishli emas, ta'limda qo'llaniluvchi asosiy yondashuvlardir. Mazkur tadqiqot ishida ona tili ta'limida antroposentrik yondashuvning ilmiy-pedagogik mohiyati haqida ma'lumot berilib, unga ko'ra bu yondashuv tilshunoslikda antroposentrizm g'oyasi ta'sirida yuzaga kelgan. Antroposentrik yondashuv



o'rganuvchi shaxsini markazga qo'yish, til o'qitishda uning qiziqishlari, ehtiyoji, qobiliyatlarini hisobga olish, o'quvchilarda kreativlik, tanqidiy tafakkur kabi sifatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

D.Yo'ldosheva "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kitobida ona tili ta'limida foydalaniladigan uch xil yondashuv (bixevioristik, integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuv) haqida ma'lumot berib o'tgan.

Bixevioristik yondashuv shaxsdagi ong, psixika, individual xususiyatlarni rad etgan holda asosiy e'tiborni xulq-atvorga qaratadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi passiv rolda bo'lishini, unga faqat tayyor bilimlar berilishini hamda o'quvchilarning iqtidori, o'zlashtirishidan qat'i nazar bir xil o'qitishni yoqlaydi. Ona tilini o'qitishda uzoq vaqt davomida amalda bo'lgan mazkur yondashuv o'zini oqlay olmadi. Lekin bixevioristik yondashuvni to'liq rad etib bo'lmaydi. Xususan, boshlang'ich ta'limda bixevioristik yondashuv asosida o'qitish samaraliroq ekanligi nuqtayi nazaridan, asosan, mazkur yondashuvga tayaniladi.

Integrativ yondashuv turli fanlarga oid bilimlarni bir-biriga bog'lagan holda birlashtirib o'qitishni nazarda tutadi. Ya'ni, ona tili darsida o'quvchi faqatgina grammatik tushunchalar bilan cheklanmasdan, turli fan va sohalarga doir ma'lumotlar bilan ham tanishtirilib borishi lozim. Integrativ yondashuv asosida o'qitish o'quvchida hodisalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni anglash, voqelikni yaxlit idrok etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kompetensiya mavjud bilim, ko'nikma, malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchida tayanch va fanga oid bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga urg'u beradi. Kompetensiyaviy yondashuv hozirgi kunda ona tilini o'qitishdagi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

X.Muhitdinova o'zbek tilini o'qitishda, asosan, quyidagi yondashuvlardan foydalanilayotganini aytib o'tadi: lingvistik (an'anaviy tizimli), matn tahlili asosida o'qitish, funksional-kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv. Bu yondashuvlar o'zbek tilini ona tili sifatida emas, ikkinchi til sifatida o'qitish uchun tegishli ekanligini e'tiborga olish lozim.

"Til o'qitishda yondashuv va metodlar" (Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers) kitobida til ta'limida qo'llanilgan va hozirda qo'llanilayotgan bir qator yondashuv va metodlar, ularning mohiyati, bir-biridan farqli xususiyatlari, ilmiy-metodik asoslari, amaliyotdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, til o'qitishda, asosan, quyidagi yondashuvlarga murojaat qilinishi aytib o'tilgan: mazmunga asoslangan ta'lim, leksik yondashuv, turfa zakovatlar, tabiiy yondashuv, vazifaga asoslangan yondashuv, yaxlit til yondashuvi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kommunikativ yondashuv va boshqalar. Mazkur

yondashuvlarning har biri o'z tamoyillariga ega bo'lib, tilning tabiati, til o'rganish nazariyalari asosida ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda til ta'limining asosiy maqsadi o'rganuvchida muloqotga kirisha olish, tildagi qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq eta olish, og'zaki va yozma nutq, tinglab va o'qib tushunish ko'nikmalarini birdek shakllantirishdan iboratligi o'qitishda kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishni talab qilmoqda.

Kommunikativ yondashuv, asosan, quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- o'quvchilar tilni muloqot qilish uchun o'rganadilar, til birliklaridan amaliyotda foydalanadilar;
- sinfdagi mashg'ulotlarning asosiy maqsadi autentik va mazmunli muloqot sanaladi;
- erkin va ravon muloqot qila olishga alohida e'tibor qaratiladi;
- muloqot jarayoni turli til ko'nikmalarini o'z ichiga oladi;
- o'rganish ijodiy jarayon bo'lib, turli tajriba va xatolarni o'z ichiga oladi.

Respublikamizda ona tili ta'limi uzoq yillar mobaynida grammatik yondashuv asosida tashkil etildi. Asosiy e'tibor nazariy qoidalarni yodlatish, yozma nutqqa ko'proq urg'u berish, ona tili darslarida bir xil qolipdagi, matndan uzib olingan terma gaplardan iborat mashqlar bilan ishlashga qaratildi. Natijada, ona tilini o'qitishga yangi yondashuvlar, texnologiyalar joriy etilmadi, ona tili darslari o'quvchilar uchun doimo bir xil, faqat yozish va ko'chirishdan iborat bo'lgan darslarga aylanib qoldi. "...Uning (grammatik yondashuvning) asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog'lanmaganligidir. Mazkur usulda mavzuni o'qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qo'llanishi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Ma'lum vaziyatda qanday gapirish to'g'ri bo'ladi, ya'ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi".

Kommunikativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturi hamda yangilangan Ona tili darsliklarida o'quv materialini spiralsimon usulda bayon qilishga, grammatik qoidalar va nazariy ma'lumotlarni ixchamlashtirgan holda amaliy ishlarga ko'proq urg'u qaratildi. Yangi avlod Ona tili darsliklariga avvalgi darsliklarda farqli ravishda yaxlit, tugal mazmunga ega bo'lgan, turli uslubdagi matnlar qamrab olingan, turli ko'rinishdagi, o'quvchini fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga, kreativlikka undovchi mashq va topshiriqlar, xususan, loyihaga asoslangan topshiriqlar ham taqdim etilgan.

Shuni qayd etib o'tishimiz lozimki, ta'limdagi yondashuvlarning hech birini to'liq mukammal

yoki, aksincha, notog'ri deb hisoblay olmaymiz. Yondashuvlar doimo bir-birini to'ldirib boradi hamda ta'lim jarayonida ko'pincha integratsiyalashgan holda yuzaga chiqadi. Har bir yondashuv til o'qitish maqsadidan kelib chiqqan holda muayyan davr va bosqichda qo'llanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yondashuvlar ta'lim

strategiyasini belgilovchi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, to'g'ri tanlangan yondashuv o'qitishning samarasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Yondashuvlar mazmun, uslub, vositalar nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlansa-da, ularning barchasi maqsad jihatdan umumiylik kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhitdinova X. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.312-b.
2. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2021.424-b.
3. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (Til ta'limiga oid fanlar moduli). – T.: "Hilol-nashr", 2020.96-b.
4. Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers. Approaches and methods in language teaching. – 2nd ed Cambridge university press, 2001. – P. 270.
6. Sobirova M. Ona tili ta'limiga antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari: Ped. fanlari doktori (DSc) diss. – Namangan. 2023.
7. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.



**Mohinur FARMONOVA,**  
BuxDU tayanch doktoranti  
[farmonovamohinur91@gmail.com](mailto:farmonovamohinur91@gmail.com)

## STRUKTURAL ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY MATN TADQIQ MANBASI SIFATIDA

**Annotatsiya:** mazkur maqolada strukturalizmning badiiy matn tahlilidagi ahamiyati yoritilgan va bu soha tadqiqiga bag'ishlangan jahon va o'zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy ishlarga e'tibor qaratilgan. Badiiy matnni badiiy asardan farqlovchi belgilar tavsiflangan hamda shu tavsif asosida badiiy matn strukturasining yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo'lishiga oid xulosalar berilgan. Maqolada "muallifning o'limi" ("matnning muallifsizlashishi"), "matnning cheksizligi" tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *strukturalizm, struktural tahlil, badiiy matn, muallifsizlashish, matn cheksizligi, intermatn, g'ayrimatn.*

**Аннотация:** в данной статье подчеркивается значение структурализма при анализе художественных текстов и акцентируется внимание на научных работах в мировом и узбекском литературоведении, посвященных изучению данной области. Описываются признаки, отличающие художественный текст от художественного произведения, и на основе этого описания делаются выводы о проявлении структуры художественного текста как целостной системы. В статье раскрываются принципы «смерти автора» («деавторизации текста») и «бесконечности текста».

**Ключевые слова:** *структурализм, структурный анализ, художественный текст, деавторизация, бесконечность текста, интертекст, нетекст.*

**Annotation:** this article emphasizes the importance of structuralism in the analysis of literary texts and focuses on scientific works in world and Uzbek literary criticism devoted to the study of this area. The features that distinguish a literary text from a work of art are described, and on the basis of this description, conclusions are made about the manifestation of the structure of a literary text as an integral system. The article reveals the principles of the "death of the author" ("deauthorization of the text") and the "infinity of the text".

**Key words:** *structuralism, structural analysis, literary text, deauthorization, infinity of the text, intertext, non-text.*